TALABALARDA UMUMINSONIY QADRIYATLARGA OID KOMPETENTLILIKNI RIVOJLANTIRISH MAZMUN-MOHIYATI

Abdug‘aniyev Ozod Tursunboy o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Ilmiy kotibi, p.f.b.f.d.(PhD), k.i.x.

Annotatsiya. Maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida talabalarning umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentliligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari yoritilgan. Shuningdek, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ijtimoiy faolligini oshirish, ma’naviy-axloqiy, fuqarolik va ijtimoiy kompetentliklarini rivojlantirishning mazmuni hamda asosiy vazifalari tahlil qilingan. Talabalarda vatanparvarlik, milliy iftixor, insonparvarlik, bag‘rikenglik va ijtimoiy mas’uliyat kabi fazilatlarni shakllantirishning ahamiyati asoslangan.

Kalit so‘zlar: umuminsoniy qadriyatlar, kompetentlilik, talaba-yoshlar, pedagogik jarayon, ijtimoiy tarbiya, ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, ijtimoiy kompetentlik.

Аннотация. В статье освещаются педагогико-психологические аспекты развития компетентности студентов в области общечеловеческих ценностей в условиях Нового Узбекистана. Также анализируются содержание и основные задачи воспитания молодежи в духе национальных и общечеловеческих ценностей, повышения ее социальной активности, развития духовно-нравственной, гражданской и социальной компетентности. Обоснована важность формирования у студентов таких качеств, как патриотизм, национальная гордость, гуманизм, толерантность и социальная ответственность.

Ключевые слова: общечеловеческие ценности, компетентность, студенческая молодежь, педагогический процесс, социальное воспитание, духовно-нравственное воспитание, национальные ценности, патриотизм, социальная компетентность.

Abstract. The article examines the pedagogical and psychological aspects of developing students’ competence in universal human values in the context of New Uzbekistan. It also analyzes the content and main objectives of educating young people based on national and universal human values, increasing their social activity, and developing

their spiritual, moral, civic, and social competencies. The importance of fostering such qualities as patriotism, national pride, humanism, tolerance, and social responsibility among students is substantiated.

Keywords: universal human values, competence, students, pedagogical process, social education, spiritual and moral education, national values, patriotism, social competence.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng ta’lim-tarbiya muammosiga doir bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Pedagogik ilmiy tadqiqotlar ko‘lami kengaydi. Sh. Shodmonova o‘quv-tarbiyaviy jarayonda talabalarning mustaqillik tafakkurini rivojlantirish, O. Musurmonova yoshlarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish muammolariga doir tadqiqot ishlarini olib bordilar. G. Maxmutov talabalarni o‘qitish hamda tarbiyalash qonuniyatlari, shuningdek, siyosiy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda talabalar ongiga samarali ta’sir etish yo‘llari, ma’naviy-axloqiy tamoyillar va me’yorlar, buyuk ajdodlarimizning xulq-odob me’yorlari hamda muomala madaniyati haqida o‘z ilmiy qarashlari asosida ifodalab o‘tdi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida yuksak intellektual, ijtimoiy faol, tashabbuskor, ma’naviy-axloqiy salohiyatga ega bo‘lgan yosh avlodni yetuk kadrlar etib tayyorlash muammosi to‘g‘risida izlanishlar olib borilgan. Yoshlarda sog‘lom turmush madaniyati va vatanparvarlik, yoshlar faolligini oshirish va ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi, ijtimoiy-pedagogik qobiliyatlarini millat rivoji ruhida tarbiyalash kabi muammolarga to‘xtalib o‘tilgan.

Mamlakatimizda yoshlarning har tomonlama yetuk shaxs sifatida voyaga yetishida jamiyat taraqqiyoti muhim o‘rin tutishi bilan birga, ularni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Talabalarning umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentliligini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masala bo‘lib bormoqda. Chunki qadriyat masalasi, uning mazmun-mohiyati to‘g‘risidagi tasavvur bilan bog‘liq yondashuvlar turli davrlarda turlicha talqin qilingan.

Talabalarning umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentliligini rivojlantirish ta’limining maqsadi, doimo insonni jamiyatda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, davlatning ijtimoiy-ma’naviy hayotida doimo faol ishtirok etishga, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilib borishga bo‘lgan intilishi orqali namuna bo‘lish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, talabalarning umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentliligini rivojlantirishning mazmun-mohiyatini biz quyidagicha ta’kidlab o‘tishimiz lozim:

- talaba-yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash-



ni jamiyatning asosiy vazifasi sifatida belgilash orqali ma’naviy-barkamol shaxsni kamol toptirish;

• talabalarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash orqali jamiyat hayotining barcha sohalarida umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligini namoyon qilib borish orqali ularning faol ishtirokini ta’minlash;

• talabalarni milliy iftixor, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik, ijtimoiy hamkorlik, xalq farovonligi, komil inson g‘oyalarini singdirgan holda umuminsoniy qadriyatlarga yo‘naltirish orqali ma’naviy hayot sohalarida ishtirokini ta’minlash;

• talabalarni mustaqil hayotga tayyorlash va ularga ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-huquqiy savodxonligini rivojlantirish;

• talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentliligini rivojlantirishda ta’lim muassasasi hayotida ijtimoiy-ma’naviy jabhalarda qadriyatlarga sodiqligini qaror toptirishda «Mentorlik», «Talaba minbari» kabi ijtimoiy loyihalarda faolligini ko‘rsatish orqali umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligini oshirib borish;

• talabalarni oliy ta’lim muassasalaridagi «Yoshlar ittifoqi» uyushmalari faoliyatida faol ishtirok etish, o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatiga keng jalb etish orqali umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentliligini rivojlantirish mumkin.

Jumladan, talabalarning ta’lim muassasasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligini rivojlantirishda uning tarbiyaviy holati ham asosiy o‘ringa chiqadi. Chunki yosh avlod tarbiyasi xususida to‘xtalar ekanmiz, taniqli o‘zbek pedagogi, ma’rifatparvar olim A. Avloniy shunday deydi: «Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir». Ushbu fikrlardan xulosa chiqarsak, shaxs tarbiyasi xususiy emas, balki ijtimoiy, milliy ilmdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Respublikamiz olimlari tomonidan ushbu muammoning asosiy jihatlari tadqiq etilgan. Olim O. Musurmonova ta’lim-tarbiyada axloqiy ong, vijdon, burch, mas’uliyat, hayo, g‘urur kabi insonning fe’l-atvorini ichki boshqarish tuzilishiga asoslanadi. Axloqning mag‘zini tashkil qiluvchi bosh qoidalar — insonparvarlik, demokratizm, halol mehnat, o‘zaro yordam, do‘stlik, hamkorlik, o‘zaro hurmat, baynalmilallik, vatanparvarlik, tabiat va atrof-muhitga diqqat-e’tibor, burch hissi hamda kamtarlik, ko‘zbo‘yamachilik va yolg‘izlikni inkor etish kabi insoniy sifatlarni o‘z tadqiqotlarida ifodalagan.

S. Jo‘rayeva yosh avlod masalasiga to‘xtalar ekan, «Yoshlarning Vatan, millat taqdiri uchun o‘zlarini mas’ul sezib, daxldorlik tuyg‘usi»ni o‘zida his qilishi to‘g‘risida to‘xtalgani, har qanday jamiyatda yosh av-



lod tarbiyasi turli davrlarda ham muhim o‘rin egallashini ta’kidlagan.

A. Begmatov ta’lim jarayonida shaxs faolligi «jamiyat manfaatlari bilan shaxs manfaatlari o‘rtasida uyg‘unlik mavjud bo‘lsa, bunday holat shaxsni jamiyat manfaatlari yo‘lida, demak, shu orqali, o‘z manfaatlari yo‘lida ham jonbozlik ko‘rsatishga undaydi», deb, inson tarbiyasida insonparvarlik tamoyilining o‘rni yuqoriligi masalasiga to‘xtalib o‘tgan.

Tarbiya jarayoni o‘quvchining onginigina emas, balki his-tuyg‘ularini ham o‘stirib borishi, unda jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilishi lozim. Bunga erishish uchun o‘quvchining ongiga, hissiyotiga va irodasiga ta’sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e’tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o‘qituvchi rahbarlik qiladi, o‘quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularni ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Ijtimoiy tarbiyani tashkil etish jarayonida bir qator vazifalar ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqib belgilanadi. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishga qaratilgan jarayonda quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda:

a) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashish, reja va amal birligi hissini uyg‘otish;

b) o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlardan ogoh etish, chuqur bilimga, tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash malakalarini tobora boyitish;

d) umuminsoniy axloq me’yorlarini anglashni (odamiylik, kamtarlik, o‘zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, adolatni yoqlash, axloqsizlikka qarshi nafrat va hokazolar), muomala odobi, yuksak madaniyatni o‘quvchilarda qaror toptirishga erishish;

e) huquqiy va axloqiy me’yorlarga hurmat ruhida yondashish, o‘quvchilarda fuqarolik tuyg‘usini, ijtimoiy burchga mas’ullikni qaror toptirish;

f) tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas’uliyatni tarkib toptirish;

g) vatanparvarlik va baynalmilallik tuyg‘usini shakllantirish, o‘zga millat va xalqlar qarashlariga hurmatni, huquq va burchlarni kamsitmaslik tuyg‘usini qaror toptirish;

h) mustaqil davlat - O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to‘g‘ri va xolisona baho berishga o‘rgatish;

o) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, uning sha’ni, or-nomusi, qadr-qimmati, huquq va burchlarini himoya qilishga o‘rgatish va boshqalar.

Xususan, Yangi O‘zbekiston sharoitida talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni rivojlantirish shiddat bilan rivojlanib, globallashib, integratsiyalanayotgan, dunyo shiddat bilan o‘zgarib, milliy o‘zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, shaxs ma’naviyatini mustahkamlash jarayonlarida turli yot g‘oyalarning salbiy ta’siri ortib, odamlarning ongi-shuuri va qalbi uchun kurash kuchayib borayotgan bir davrda ta’lim-tarbiya, targ‘ibot va tashviqot ishlari jarayonida umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, milliy g‘oya, millat va ularning o‘zaro bog‘liqligi masalasining dolzarbligi yanada oshmoqda. Xalqning ma’naviy hayotida o‘zligini anglash muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan, talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni rivojlantirishda ayni ma’naviy-axloqiy tarbiyalanishni ta’lim-tarbiya jarayonining, avvalo, milliy o‘z-o‘zini anglashining mazmun-mohiyatini, xalq, millat tushunchalari hamda ularning o‘zaro aloqadorlik jihatlariga alohida e’tibor qaratish lozimligi qayd etilmoqda.

Talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlarini tahlil etar ekanmiz, biz

tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlarni o‘rganish doirasida, avval, mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ishlaridagi ilmiy imkoniyatlarni tahliliga to‘xtalib o‘tishni lozim deb topdik.

“Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati”da ijtimoiy tarbiya — tarbiyaning muhim bir shakli, butun jamiyat, xalq, millat va tabaqaga ko‘rsatilgan maqsadga muvofiq ma’naviy ta’sirni ifoda etadi. Ijtimoiy tarbiya shaxs ongi va tafakkuri, ma’naviy-ma’rifiy olamini jamiyatning maqsad va vazifalariga uyg‘un hamda hamohang ravishda shakllantirish va rivojlantirish jarayoni, kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etish, ezgu ta’sir hamda omillar majmui. Ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi fuqarolarni insonparvar demokratik jamiyat, huquqiy davlat qurishga safarbar etish, yagona umummilliy g‘oya atrofida birlashtirishdan iborat. Ijtimoiy tarbiyada ota-ona mehri, Vatan muhabbati, ustoz-shogirdlik an’analari, milliy qadriyatlar, mahalla va jamoatchilik nazorati ham katta ta’sir kuchiga ega bo‘lib, yoshlar kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, Yangi O‘zbekiston sharoitida talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni rivojlantirishda ta’lim jarayonida talabalarda vatanparvarlik, milliy iftixor ruhida shakllanadigan bilishning o‘ziga xos shakllaridan biridir, deb e’tirof etish mumkin. Demak, shaxsning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, jamiyat, ijtimoiy qatlami, siyosiy partiya va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining muayyan maqsadlari ifodasi, ularni bu yo‘lda birlashtirishi, uyushtirishi, faoliyatga undashi, safarbar qilishi» deb ifodalab o‘tilgan.

Shuning uchun ham ta’lim jarayonida “fanga oid komponentlar”ning alohida ahamiyatga egaligi o‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda alohida ta’sir etib boradi. Ya’ni:

- ijtimoiy kompetentlik - har bir zamonaviy odam uchun muhim bo‘lgan individning turlicha ijtimoiy o‘z qarashlarini ifodalash imkonini beruvchi;
- ijtimoiy kompetentlik har biri mustaqil kompetentlik sifatida qaralishi mumkin bo‘lgan ko‘plab jihatlar - tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi (ijtimoiy-fuqarolik, ijtimoiy-kommunikativ, axborot kompetentligi va ijtimoiy-individual kompetentliklar) muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, Yangi O‘zbekiston sharoitida talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni rivojlantirishning asosiy maqsadi yoshlarda bunyodkor g‘oyalarning mazmun-mohiyatan sog‘lom yoki nosog‘lom, ezgu yoki yovuz, bunyodkor yoki buzg‘unchi g‘oyalarning bo‘lishi mumkinligini yoritish hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalanishi muhim ahamiyat kasb etmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Avloniy. «Turkiy Guliston yoxud axloq» (nashrga tayyorlovchi Xoliqov L.) -Toshkent: O'qituvchi, 1992. 160 b.

2. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. -T.: Fan, 1993. - 28 b.

3. Jo'raeva S.N. Talaba shaxsiga kasbiy shakllanish ta'sirining psixologik jihatlari.: Avtorefarat. Dis...ped.fan.nom. - T., 2010 y.

4. Begmatov A. Ma'naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. - Toshkent.: Sharq,
2000 y. - 64-65 b.

5. Rumiy J. Ma'naviy masnaviy. Muhammad tarjimasi. Tehron,
2001 yil, 7-b. Forscha-o'zbekcha lug'at.

6. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. O'zbekiston faylasuflari jamiyati.: T-2010 y. 188-b.

7. Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondashuvlar.. (kadrlar tayyorlash milliy dasturi vazifalari doirasida). T.: 2002.-19 b.